OG‘ZAKI IMPROVIZATSIYA KO‘NIKMLARINI MASHQ QILISH

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi v.b dotsenti
998 97 741 68 88 shohsanammatupaeva@gmail.com
Qo‘ziboyeva Indira Xudaybergan qizi
Xolova Gulnoza Avazovna
Shomurotova Dinora Xayitboy qizi
Shanadirova Dilnoza Ikromjonovna
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini mashq qilishning nazariy, psixologik va pedagogik asoslari keng yoritiladi. Og‘zaki improvizatsiya inson nutq faoliyatining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, tezkor fikrlash, fikrni izchil bayon qilish, kommunikativ vaziyatlarga moslashish hamda nutqning ravonligi va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada og‘zaki improvizatsiya tushunchasi, uning nutq faoliyati bilan bog‘liqligi, inson tafakkuri va tasavvur jarayonlari bilan aloqasi tahlil qilinadi. Shuningdek, og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik metodlar, mashqlar va amaliy tavsiyalar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Nutq madaniyatini rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, obrazli ifoda vositalaridan foydalanish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish og‘zaki improvizatsiyani rivojlantirishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, improvizatsion faoliyat, kommunikativ kompetensiya, spontan fikrlash, nutq texnikasi, interaktiv metodlar, dialogik muloqot, kreativlik

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические, психологические и педагогические основы формирования навыков устной импровизации. Устная импровизация является важным видом речевой деятельности, способствующим развитию быстроты мышления, логичности речи и способности адаптироваться к различным коммуникативным ситуациям. В статье анализируется сущность устной импровизации, ее связь с мышлением и речевой деятельностью человека. Также рассматриваются методы и упражнения, направленные на развитие навыков устной импровизации, развитие словарного запаса, выразительности речи и творческого мышления.

Ключевые слова: устная речь, импровизация, коммуникативная компетенция, спонтанное мышление, техника речи, интерактивные методы, диалогическое общение, креативность

Abstract: This article discusses the theoretical, psychological and pedagogical foundations of developing oral improvisation skills. Oral improvisation is an important form of speech activity that helps develop quick thinking, logical speech organization and the ability to adapt to various communicative situations. The article analyzes the concept of oral improvisation and its relationship with thinking and speech processes. It also describes teaching methods and exercises aimed at improving oral improvisation skills, vocabulary development, expressive speech and creative thinking.

Keywords: oral speech, improvisational activity, communicative competence, spontaneous thinking, speech technique, interactive methods, dialogic communication, *creativity*

Kirish

Og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini mashq qilish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson nutqi uning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nutq orqali inson o‘z fikrlarini ifodalaydi, boshqalar bilan muloqot qiladi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Shu sababli nutqni rivojlantirish, ayniqsa og‘zaki nutqni takomillashtirish har bir shaxsning intellektual va kommunikativ rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Erkin nutq bayoni esa nutq faoliyatining shunday turiki, unda inson oldindan tayyorgarliksiz, erkin va mantiqiy tarzda o‘z fikrini bayon qiladi.

Tayyorgarliksiz nutq bayoni insonning tezkor fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish, vaziyatni tez tahlil qilish va o‘z fikrini aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Improvizatsiya jarayonida insonning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri va diqqat jarayonlari birgalikda faol ishlaydi[1]. Shu sababli spontan nutq nafaqat nutqni rivojlantirish, balki shaxsning umumiy intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida erkin nutq bayoni ko’nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilar va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga, ularning nutqiy faolligini kuchaytirishga hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini oshirish emas, balki ularning erkin fikrlashini rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda insondan turli vaziyatlarda tez va aniq fikr bildira olish, muloqot jarayonida faol bo‘lish va o‘z fikrini asoslab bera olish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, spontan nutq ko‘nikmalarini mashq qilish shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida tezkor og‘zaki fikr bayoni ko’nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning lug‘at boyligini kengaytiradi va nutqning ravonligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, improvizatsiya jarayonida o‘quvchilar turli vaziyatlarda erkin fikr bildirishga o‘rganadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda nutq madaniyatining shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini mashq qilish pedagogika va nutq madaniyati sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ilmiy adabiyotlarda nutq faoliyatini rivojlantirish masalasi turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Psixolingvistik tadqiqotlarda nutq va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’kidlanadi. Pedagogik manbalarda esa interaktiv metodlar, dialogik ta’lim va faol o‘qitish usullari nutqni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalari nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar insonning o‘z fikrini erkin va ravon ifodalashiga, turli kommunikativ vaziyatlarga moslashishiga hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Spontan njtq jarayonida inson oldindan tayyorlanmagan holda nutq tuzadi, vaziyatni tez tahlil qiladi va zarur ma’lumotlarni tanlab, ularni mantiqiy tarzda bayon qiladi[2]. Bunday nutq faoliyati insondan tez fikrlash, keng lug‘at boyligiga ega bo‘lish va nutqni mantiqiy tashkil qilish qobiliyatini talab etadi.

---

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Pedagogika va psixologiya asoslari. — Toshkent, 2018.

Erkin og'zaki bayon ko'nikmalari inson tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir. Tafakkur insonning fikrlash jarayonini boshqaradi va yangi g'oyalar yaratishga yordam beradi. Improvizatsiya jarayonida inson muayyan vaziyatni tez tahlil qiladi, muhim ma'lumotlarni tanlaydi va ularni nutq orqali ifodalaydi. Bunda tasavvur ham muhim rol o'ynaydi. Tasavvur insonning turli obrazlarni ko'z oldiga keltirishiga va ularni so'z orqali ifodalashiga yordam beradi.

Og'zaki improvizatsiya jarayonida xotira va diqqat ham muhim ahamiyatga ega. Xotira insonning oldingi bilimlari va tajribalarini eslab qolishga va ulardan foydalanishga yordam beradi. Improvizatsiya jarayonida inson o'z bilimlari va tajribasiga tayanadi, turli fakt va misollarni eslab, nutq jarayonida ulardan foydalanadi. Diqqat esa nutq jarayonida muhim ma'lumotlarni tanlash va ularni izchil tarzda bayon qilishga yordam beradi.

Mazkur maqolada kuzatish, pedagogik tajriba, tahliliy yondashuv hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning nutqiy faolligi, fikr bildirish tezligi, muloqotga kirishish darajasi va nutq aniqligi o'rganildi. Turli mashg'ulotlar orqali ularning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Natijalar

Og'zaki improvizatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish insonning umumiy intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki improvizatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishda nutq madaniyati muhim rol o'ynaydi. Nutq madaniyati insonning til me'yorlariga rioya qilgan holda aniq, ravon va ta'sirchan gapira olish qobiliyatini anglatadi. Nutq madaniyati rivojlangan inson o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqiy va tushunarli tarzda ifodalay oladi. Bu esa improvizatsiya jarayonining samarali bo'lishiga yordam beradi. Ushbu jarayonda tilning boy imkoniyatlaridan foydalanish, grammatik me'yorlarga amal qilish va nutqning ifodali vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Tayyorgarliksiz og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida lug'at boyligi ham katta ahamiyatga ega. Lug'at boyligi qanchalik keng bo'lsa, inson o'z fikrini shunchalik aniq va ifodali tarzda bayon qila oladi. Shu sababli muntazam ravishda kitob o'qish, yangi so'zlarni o'rganish va ularni nutqda qo'llash improvizatsiya qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Olingan natijalar og'zaki improvizatsiyaning ko'p qirrali ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning umumiy intellektual salohiyatini ham oshiradi. Tezkor fikrlash, vaziyatni baholash va mos qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Shu bilan birga, bu jarayon o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganib, ichki tortinchoqlikni yengib o'tadilar. Ayniqsa, uyatchan yoki passiv o'quvchilar uchun improvizatsion mashqlar samarali vosita hisoblanadi. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, boshlang'ich bosqichda o'quvchilar qiyinchilikka duch kelishi mumkin, chunki ular oldindan tayyorlanmagan nutqqa ko'nikmagan bo'ladilar. Shu sababli o'qituvchi mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etishi, oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga amal qilishi lozim.

Muhokama

Bundan tashqari, turli mavzularda suhbatlashish, hikoya qilish va nutq mashqlarini bajarish ham foydali hisoblanadi. Erkin og'zaki fikr bayoni ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli pedagogik metodlardan foydalaniladi. Bunday metodlar orasida nutq mashqlari, tasvir asosida hikoya tuzish, dialog va munozara mashqlari, rolli o'yinlar hamda ijodiy topshiriqlar alohida o'rin tutadi. Nutq mashqlari improvizatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu mashqlarda o'quvchilarga muayyan mavzu beriladi va ular qisqa vaqt ichida shu

mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilishlari kerak bo‘ladi. Bu mashq insonni tez fikrlashga va nutqni mantiqiy tarzda tashkil qilishga o‘rgatadi.

Tasvir asosida hikoya tuzish mashqlari ham og‘zaki improvizatsiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mashqlarda ishtirokchilarga turli rasmlar yoki manzaralar ko‘rsatiladi va ular shu tasvir asosida hikoya tuzishlari kerak bo‘ladi. Bu jarayon tasviriy nutqni rivojlantiradi va insonning tasavvurini boyitadi. Tasvir asosida hikoya tuzish jarayonida inson voqealar ketma-ketligini o‘ylab topadi va ularni nutq orqali ifodalaydi. Dialog va munozara mashqlari ham og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlarda ishtirokchilar muayyan mavzu yuzasidan fikr almashadilar va o‘z nuqtai nazarlarini himoya qiladilar. Bu jarayon nutq faoliyatini faollashtiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi hamda insonni tezkor javob berishga o‘rgatadi.

Og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda dramatizatsiya va rolli o‘yinlar ham samarali hisoblanadi. Bunday mashqlarda ishtirokchilar turli rollarni ijro etadilar va shu rol asosida nutq tuzadilar. Bu mashqlar nutqning ifodali bo‘lishiga, hissiy boyligining oshishiga va kommunikativ faoliyatning rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, berilgan bir nechta so‘zlar asosida hikoya tuzish mashqi ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu mashqda ishtirokchilarga tasodifiy so‘zlar beriladi va ular shu so‘zlar asosida hikoya yaratishlari kerak bo‘ladi. Bu jarayon nutqni erkinlashtiradi va improvizatsiya qobiliyatini rivojlantiradi. Ekspromt nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida muntazam mashq qilish muhim ahamiyatga ega. Muntazam mashqlar orqali inson nutqining ravonligi, aniqligi va ta’sirchanligi ortadi. Bunday mashqlar nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, kundalik voqealarni hikoya qilib berish, turli mavzularda suhbatlashish yoki ko‘rilgan film haqida fikr bildirish improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini mashq qilish nutq faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar insonning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, nutq ravonligini oshiradi hamda muloqot jarayonida erkin fikr bildirish imkoniyatini yaratadi. Tezkor og‘zaki fikr bayoni jarayonida inson o‘z fikrini mantiqiy, aniq va ta’sirchan tarzda ifodalashga o‘rganadi. Shu sababli ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki nutqni erkin rivojlantirishda turli nutq mashqlari, dialog va munozaralar, tasvir asosida hikoya tuzish, rolli o‘yinlar hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning lug‘at boyligini kengaytiradi va nutqning ifodali bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, improvizatsiya mashqlari o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatadi.

Og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini muntazam mashq qilish orqali inson nutqining aniqligi, ravonligi va ta’sirchanligi oshadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Chunki nutqi rivojlangan inson jamiyatda o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi, boshqalar bilan samarali muloqot qiladi va turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladi. Shu sababli ta’lim jarayonida og‘zaki improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Natijada erkin og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish shaxsning nutqiy, intellektual va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu ko‘nikmalar insonning nutq madaniyatini

shakllantiradi, uning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda jamiyatda faol va erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006.
3. Sodiq Mirzayev, Abduvahob Usmonov. O‘zbek tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Lev Vygotsky. Thinking and Speech. — Moscow: Pedagogika, 1982.
5. Dale H. Schunk. Learning Theories: An Educational Perspective. — Boston: Pearson Education, 2012.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Pedagogika va psixologiya asoslari. — Toshkent, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya metodikasi. — Toshkent, 2020.

References

8. Abdulla Avloniy. Turkiy Gulistan or Morality. — Tashkent: O‘qituvchi, 1992.
9. Shavkat Rahmatullayev. Modern Uzbek Literary Language. — Tashkent: University Publishing, 2006.
10. Sodiq Mirzayev, Abduvahob Usmonov. Uzbek Language. — Tashkent: O‘qituvchi, 2010.
11. Lev Vygotsky. Thinking and Speech. — Moscow: Pedagogika, 1982.
12. Dale H. Schunk. Learning Theories: An Educational Perspective. — Boston: Pearson Education, 2012.
13. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. Fundamentals of Pedagogy and Psychology. — Tashkent, 2018.
14. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. Speech Culture and Methodology of Communicative Competence. — Tashkent, 2020.